

# **Uzbekistan Airways yo'lovchilari uchun aksiya!**

**2021 8 Iyul**

Joriy yilning 10 iyuldan 31 iyulga qadar "Uzbekistan Airways" AJ O'zbekistondan Istanbulga sayohat qilish uchun yanada qulay sharoitlarni taklif etadi.

Aviakompaniya yo'lovchilar uchun Toshkent-Istanbul-Toshkent, Samarqand-Istanbul-Samarqand, Urganch-Istanbul-Urganch, Farg'ona-Istanbul-Farg'ona yo'nalishlari bo'yicha bepul bagaj tashish miqdorini oshiradi.

Endilikda Toshkent-Istanbul-Toshkent yo'nalishi bo'ylab sayohat qilishni rejalashtirayotgan yo'lovchilarga ekonom klassda 40 kg gacha, biznes-klassda - 50 kg gacha bepul bagaj tashish imkoni beriladi.

Samarqand-Istanbul-Samarqand, Urganch-Istanbul-Urganch, Farg'ona-Istanbul-Farg'ona yo'nalishlari bo'yicha safar qilishni rejalashtirayotgan yo'lovchilarga xarid qilingan ekonom klass tarifidan qat'iy nazar, 35 kg gacha, biznes-klassda - 40 gacha bepul bagaj tashishga ruxsat beriladi.

\*Aksiya aviachiptada ko'rsatilgan me'yordan qat'iy nazar, yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida "Uzbekistan Airways" parvozlariga tatbiq etiladi.